

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

O'RTA OSIYO KO'CHMANCHI XALQLARINING NOMLARI VA JOYLASHUVI XUSUSIDA.

Amanturdiyev Shavkat Safaraliyevich,
Termiz Davlat Universiteti PhD mustaqil izlanuvchisi.
tel: +998996759483

Annotatsiya: Qadimgi O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalari nomlari, yashash hududlarini o'rganish XIX asrda xorijiy davlatlarda mavjud yozma manbalarni turli tillarga tarjima qilish orqali boshlangan. Uning davomi XX asrda mintaqada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan uyg'unlashib bordi. XX asr so'nggi o'n yilliklaridan boshlab endi masalaga "ko'chmanchi dasht qabilalari madaniyati" deb qarash tendensiyasi kuchaydi. Maqola turli manbalar asosida qadimgi davr O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalari nomlari va yashash hududlari haqida.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalari nomlari, zamonaviy laborator usullardagi ilmiy tadqiqotlar, Klavdiy Ptolemey, Arrian, Pliniy, Strabon, Gerodot, Avesto.

В НАЗВАНИЯХ И МЕСТОНАХОЖДЕНИИ КОЧЕВЫХ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ.

Аннотация: Изучение названий древних среднеазиатских кочевых племен, территорий их расселения началось в XIX веке с перевода на разные языки письменных источников, имеющих в зарубежных государствах. Его продолжение гармонично сочеталось с результатами археологических исследований, проведенных в регионе в XX веке. С последних десятилетий XX века сейчас нарастает тенденция рассматривать вопрос как "культуру кочевых степных племен". Статья основана на различных источниках о названиях и территориях расселения древних среднеазиатских кочевых племен.

Ключевые слова: Названия древних кочевых племен Средней Азии, научные исследования современными лабораторными методами, Клавдий Птолемей, Арриан, Плиний, Страбон, Геродот, Авеста.

THE NAMES AND SETTLEMENTS OF THE NOMADIC PEOPLES OF CENTRAL ASIA ARE SPECIAL.

Abstract: The names of the nomadic tribes of ancient Central Asia, the study of living territories began in the XIX century by translating existing written sources in foreign countries

into different languages. Its continuation was harmonized with the results of archaeological research carried out in the region in the 20th century. Since the last decades of the 20th century, the trend has now intensified to view the issue as a “nomadic steppe tribal culture”. The article is about the names and habitation areas of the nomadic tribes of ancient Central Asia based on various sources.

Keywords: Names of ancient nomadic tribes of Central Asia, scientific research in modern laboratory methods, Claudius Ptolemy, Arrian, Pliny, Strabon, Herodotus, Avesto.

KIRISH. O‘rta Osiyo qadimgi davr ko‘chmanchi qabilalarining nomlari, yashash hududlarini o‘rganish XIX asrda xorijiy davlatlarda mavjud yozma manbalarni ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilish orqali boshlangan. XX asrda mintaqaning o‘zida ularni asoslovchi keng suratlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan uyg‘unlashib bordi. Sobiq Ittifoqning parchalanishidan so‘ng tarixchi olimlar mafkuraviy erkinlikka erishishdi, bu boradagi o‘rnatilgan asosiy sun‘iy to‘siqni yo‘qolishi natijasida olib borayotgan tadqiqotlarining aniq xulosalarini ayta olish imkoniga ega bo‘lishdi. XX asr so‘nggi o‘n yilliklaridan boshlab endi masalaga “ko‘chmanchi dasht qabilalari madaniyati” deb qarash tendensiyasi kuchaydi. Xorijlik tadqiqotchilarning bevosita o‘zlari ham turli grand-loyihalar asosida ushbu sohada davom etayotgan arxeologik va boshqa tadqiqotlarda birgalikda ishtirok etishi ko‘chmanchi qabilalar tarixini ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lgan rivoyatlardan iborat emasligini yana bir bor ko‘rsatib berdi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab ko‘chmanchilarning asl tarixini o‘rganishda yangicha nazariyalar taklif qilindi. So‘nggi 20-30 yilliklarda mintaq va unga qo‘shni hududlarda biologik, kimyoviy, makro va mikrobotanik, biomolekulyar, izotopik, zoarxeologik kabi shakldagi zamonaviy laborator usullardagi ilmiy tadqiqotlar[1] olib borilmoqda. Natijalar mavjud xulosalardagi ayrim bo‘shliqlarni to‘ldirilishidan tashqari an‘anaviy tadqiqotlar bilan birga katta imkoniyatlarga ega bunday uslubdagi o‘rganishlarga alohida e‘tibor berish kerakligini ko‘rsatib berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

O‘rta Osiyoning qadimgi ko‘chmanchi qabilalariga oid mavjud yozma manbalar qadimgi yunon-rim, xitoy mualliflarining asarlari, “Avesto”, Bexustun va Naqshi Rostam yozuvlari, Persepol va boshqalar. Bir qarashda yetarlicha manbalar bordek tuyilsada, ularning qanchasi asosli va tadqiqotlarda qaysilaridan foydalanish muammolari mavjud. Aksariyat yunon-rim mualliflarining asosiy maqsadi skif, sak va boshqa sharq xalqlari hayotini batafsil yoritishga harakat qilish bilan birga o‘quvchida katta qiziqish uyg‘otadigan hikoyalar yordamida mashhurlikka erishishga qaratilgan edi. Qadimgi tarixchilarning O‘rta Osiyo geografiyasi haqida bergan ma‘lumotlarini bevosita o‘zlari kelib ko‘rmaganligi, Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy va Salavkiylar davlati ma‘muriy tuzilmalari doirasida bo‘lganligi sababli, mazkur imperiyalardan tashqari hududlar haqida turli chalkashliklar, mos kelmaydigan birliklar yetarlicha topiladi.

Shunday bo‘lsada, yunon-rim muarrixlari orasida ba‘zilari nisbatan aniq ma‘lumotlar berishidan tashqari ko‘chirmalari kamroq va boshqa mualliflar ulardan ishonarliligi uchun iqtibos olishlari ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ular safida Gekatey, Geradot, Ktesiy, Ptolomey, Strabon, Aristobul, Arrian, Kursiy Ruf, Eratosfen, Polibiy, Pliniy, Efor, Artemidalik Apollodor va boshqalar bor.

Olimlarning ma‘lum bir guruhi tomonidan ko‘chmanchilarga tegishli qabila yoki joy nomlarini klassik asarlarda uchraydigan nomlar bilan qanday mazmun va ma‘noda qo‘llanilganiga e‘tibor bermasdan xitoy manbalarida uchraydiganlari bilan birlashtirishga katta e‘tibor qaratishadi[2]. Bu aytilayotgan hududda xitoy manbalarida keltirilgan nomlar yuqoridagi asarlardagilar bilan ayni bir xil degan xatoliklarga yo‘l ochadi.

Yozma manbalardagi ma‘lumotlarni saralashda mualliflardagi xato xabarlar qanday kelib qolganligi qiziqarli jihat. Ko‘pincha asar mualliflari o‘z davrining boy kutubxonalaridan foydalangan, o‘zidan oldingi tarixchilar ma‘lumotlariga tayangan. Ulardagi xatoliklar bevosita takrorlanavergan. Har bir muallif ma‘lum bir qadimgi tarixnavislik maktabi vakili bo‘lib, ularning asarlarini qiyosiy va statistik tahlil qilish qaysi maktab vakili ekanligini aniqlab beradi. Mashxurlikka erishish har bir tarixchi, balki maktablar o‘rtasida o‘zaro kurashda ham namoyon bo‘ladi. Yuqorida nomlari keltirilgan va boshqa klassik yozma manbalarni umumiy mohiyatiga e‘tibor bersak quyidagi jihatlarga duch kelamiz: Aleksandr Makedonskiy davri voqealarini bayon qilishda asosan Sirdaryo bo‘yi va O‘rta Osiyoning boshqa cho‘l-dasht hududi ko‘chmanchi qabilalari tomon qilingan yurishlardagi mag‘lubiyat yoki maqsadga erishilmaslik mavzusi kam yoritiladi, balki yunon ulug‘vorligiga raxna solmasligi uchun atayin e‘tibor berilmaydi.

Kursiy Ruf va Arrian kabi Aleksandr yurishlarini yoritgan mualliflar o‘z asarlarini yaratishda ushbu kampaniya ishtirokchilarini bevosita qo‘lyozma va kundaliklaridan foydalangan. Manbalarning shu asosda yaratilishi mintaqa xalqlari joylashuvi va geografiyasining o‘zlarigacha bo‘lgan davrlarda mavjud bo‘lgan noaniqlik xamda xato ma‘lumotlarni to‘la bo‘lmasada aniqlashtirilishiga olib keldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalari nomlari keltirilgan manbalar asosida jadval shaklida to‘plandi va bu yakuniy fikrlar emas. Ma‘lumotlarni shakllantirishda foydalanilgan manbalar turli davrlarga tegishliligi ko‘rsatilgan qabilalar nomi va yashash joylari masalasidagi etirozlarda inobatga olinishi kerak. Bular orasida ayrimlari o‘troq xalqlarga tegishli yoki umuman mavjud bo‘lmagan bo‘lishi xam mumkin. Ushbu nomlarning har biri tarixini o‘rganish va tahlil qilish keyingi tadqiqotlar mobaynidagi muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Jadval № 1. Baqtriya ko‘chmanchi xalqlari ro‘yxati.

T/r	Ko‘chmanchi qabilalar nomi	Yashash hududlari	Manbalar

1	Akinak[3]	Shimoliy Baqtriyadan janubga qarab.	Helmut Humbach, Klaus Faiss. Herodotus's Scythians and Ptolemy's Central Asia. Semasiological and Onomasiological Studies. Wiesbaden. 2012. – p. – 35. Клавдий Птоломей. VI, 11.6.
2	Amarisp[3.-p.36.]	Shimoliy Baqtriyadan janubga qarab	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
3	Amirgiya saklari [4]	Baqtriya va Hindiston oralig‘ida. (qabila Arrian davriga kelib ko‘chib o‘tishi bilan bog‘liq)	Арриан Ф. Поход Александра / перевод с древнегреческого М.Е.Сергеенко. Ответственный редактор д.и.н. О.О. Крюгер.-М.: -Л., 1962. Арриан. III.
4	Arsit(Orsit, Orisip) [3. -p.38.]	Tog‘larda yashovchi qabila. (Baqtriya yerlarida yashashi ko‘rsatilgan)	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
5	Aristey[3. -p.38.]	Shimoliy Baqtriyadan janubga qarab.	Клавдий Птоломей . География. VI. 11.6.
6	Baten [5]	Amudaryodan(Oks) janubda	Плиний Старший., VI. XVIII. 48. В.В. Латышев. Известия древних писателей о Скифии и Кавказе. Вестник древней истории, 1949, № 2. Извлечения и переводы из книги VI, сделаны И.П. Цветковым.
7	Gomodot-Homodot (Farmakotrof, Garmakotrop)[5]	Amyurgi saklari (Saka хаумоварга) deb talqin qilinadi.	Плиний Старший., XIX. 50.
8	Kirrodey [4. -p.41.]	Oks bo‘yida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
9	Koman [5]	Baqtriya tog‘larida joylashgan bo‘lishi kerak	Плиний Старший., XVIII. 47.
10	Kitomar (kom, komar, xomar, xaoman)[5]	Ariana yoki Baqtriyada.	Плиний Старший., XVIII. 47.
11	Sabodiy[4. -p.39.]	Baqtriyaning janubida	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
12	Sagater[4. -p.39.]	Baqtriyaning shimolida Amudaryo (Oks) bo‘ylab	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
13	Skord[4. -p.39.]	Baqtriyaning janubida	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
14	Tambiz[4. -p.39.]	Baqtriyaning janubida	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.

15	Varn (Uarn, Uaran)[4. -p.38.]	Baqtriyaning janubida	Клавдий Птоломей. География. VI, 11.6.
----	-------------------------------	-----------------------	--

Jadval № 2. So‘g‘d ko‘chmanchi qabilalari.

T/r	Ko‘chmanchi qabilalar nomi	Yashash hududlari	Manbalar
1	Arismi (Arasma)[5]	So‘g‘d yaqinida	Плиний Старший., XVIII. 48.
2	Dribakt[4. -p.40.]	So‘g‘d to‘g‘lari ortida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
3	Kandar (Gandar) [4. -p.41.], [5]	So‘g‘d to‘g‘lari ortida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12. 4. Плиний Старший., XVIII. 48.
4	Mardiyon[4. -p.41.]	So‘g‘d to‘g‘lari etagida	Клавдий Птоломей. VI, 12.4.
5	Oksiadrak[4. -p.42.].	So‘g‘d to‘g‘lari ortida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.

Jadval № 3. Xorazm ko‘chmanchi qabilalari

T/r	Ko‘chmanchi qabilalar nomi	Yashash hududlari	Manbalar
1	Adrasp[6]	Massaget va saklar tarkibiga kiritiladi (Orolbo‘yi va Xorazm atrofida bo‘lishi mumkin)	Страбон. География. В 17 книгах / Пер. Г.А.Стратановского. - М. - Л.: Наука, 1964. XI, 8, 8.
2	Atasiy[6]	Massaget va saklar tarkibida	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,8.
3	Massaget[6],[7].	Qoraqum va Sirdaryoning quyi qismi. Amudaryoning quyi oqimi, Orolbo‘yi va uning g‘arbiy qismi. Kaspiy dengizining shimoliy sharqigachada. Ba‘zilari tog‘larda, boshqalari tekislikda, uchinchisi daryo hosil qiluvchi botqoqliklarda, to‘rtinchisi esa daryo hosil qiluvchi orollarda.	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,6. Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г.А.Стратановского. Наука., Л., 1972. Геродот. История в девяти книгах. I.134.

Jadval №4. Toshkent va Janubiy Qozog‘iston, Farg‘ona, Pomir, Tyan-Shan, Yettisuv ko‘chmanchilari xalqlari ro‘yxati.

T/r	Ko‘chmanchi qabilalar nomi	Yashash hududlari	Manbalar
1	Abiy[4]	Sirdaryo(Tanais)dan shimolda	Арриан Ф. Поход Александра. IV,1.1.

2	As (Asiy) yoki Aziy[6].	Sirdaryo bo‘yi saklari va So‘g‘dlar yerlari oralig‘i (Keyinchalik Yunon-Baqtriya yerlarini egallagan).	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,2.
3	Issedon (essedon)[5]	Sirdaryodan (Yaksart) shimolda	Плиний Старший., XIX. 50.
4	Komedi[4. -p.41-43.]	Yaksartning yuqori oqimi	Клавдий Птоломей. География. VI-12-3., VI.13.2-3.
5	Pasian[6].	Sirdaryo bo‘yi saklari va So‘g‘dlar yerlari oralig‘i (Keyinchalik Yunon-Baqtriya yerlarini egallagan)	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,2.
6	Sakaravl [6].	Sirdaryo bo‘yi saklari va So‘g‘dlar yerlari oralig‘i (Keyinchalik Yunon-Baqtriya yerlarini egallagan)	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,2.
7	Tigraxauda saklari[7] Ortokoribanti nomi xam ularga nisbatan ishlatiladi	Toshkent viloyati, Janubiy Qozog‘iston	Геродот. История в девяти книгах. I. 131., I. 153.,
8	Toxar[6].	Sirdaryo bo‘yi saklari va So‘g‘dlar yerlari oralig‘i (Keyinchalik Yunon-Baqtriya yerlarini egallagan). Sirdaryoning shimoliy qismida.	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,2.
9	Xaumavarga saklari[7]	Pomirning tog‘li tumanlari, Farg‘ona va Tyan-Shanning janubi	Геродот. История в девяти книгах. I.133.

Jadval № 5. O‘rta Osiyo daryolari qirg‘oq bo‘yi, cho‘l, tog‘ va tog‘ yonbag‘ri ko‘chmanchi xalqlari ro‘yxati.

T/r	Ko‘chmanchi qabilalar nomi	Yashash hududlari	Manbalar
1	Antakat[5]	Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida	Плиний Старший., XIX. 50.
2	Apasiak [6]	Oks va Tanais orasida, Parfiyaning shimoliy qismi, Sirdaryo bo‘yida.	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8, 8.
3	Araxot [6]	Baqtriya yaqinida, ularning g‘arbrog‘ida Oks bo‘ylab	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8.8.
4	Avgal (Avtal)[4. - p. -40.]	Sirdaryoning shimoliy qismida, toxarlardan quyiroqda.	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
5	Berdrig [5]	Oks (Amudaryo) daryosining yuqori oqimidan janubdagi tog‘lar yaqinida joylashgan noma‘lum qabila.	Плиний Старший. Естественная история. Книга шестая. XVIII. 47.

6	Danaviy (Danay) [8]	O‘rta Osiyo (Turlarning afsonaviy urug‘laridan)	Авесто. Асқар Махкам таржимаси. Тўртинчи дафтар. Яштлар. (5-яшт) Ардвисура Анахита қасидаси, 18-бўлим (84). “Шарқ”, Тошкент. 2001. 178-бет.
7	Day, (Dax, Daan)[4], [6]	Kaspiy dengizining sharqidan Orolning shimoliy qirg‘oqlarigacha Tanaisning narigi tarafida (shimoliy qirg‘oq).	Арриан. III, 28.8-10. Страбон. География. В 17 книгах. XI, 7.1.; XI, 9,2-3.
8	Dengiz orti saklari (Saka tara darayya) [7]	Orol dengizi bo‘ylari, Sirdaryoning quyi oqimi va uning qirg‘oqlari.	Геродот. История в девяти книгах. I.150.
9	Derbik[6].	Kaspiy dengizi yaqinida, sharqiy sohilda joylashgan (Qoraqum sahrosida, Daylarning shimoldagi qo‘shnisi)	Страбон. География. В 17 книгах. XI, 8,8.
10	Ksanfi daylari (Daylarning bir qismi) [6]	Kaspiy dengizi qirg‘oqlaridan sharqqa qarab	Страбон. География. В 17 книгах. XI. 8.2.
11	Orkian yoki Ork[5]	Mardlardan pastroqda (sharqqa qarab), Baqtriya yaqinida	Плиний Старший., XVIII. 47.
12	Oksiyen [4. -p. - 42.]	Oks bo‘yida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
13	Pazik [4. -p. 38-40.]	Oks tog‘lariga yaqin joyda	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
14	Parn(sparn), Aparn (aparni daylari). (Ksandi yoki Park nomlari ularga tegishli deb aytiladi)[6]	Sirdaryo va Orol dengizining shimoliy qismida yashagan, keyinchalik Marg‘iyonaning bo‘sh yotgan cho‘llariga (Girkaniyadan Kaspiy dengizi qirg‘oqlari oralig‘igacha) ko‘chgan. Daylarning Parfiya yerlariga hujum qilgan bir qismi.	Страбон. География. В 17 книгах. XI. 8.2., XI, 9,2-3.
15	Pestik[5]	Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘oqlarida derbiklar bilan bir qatorda tilga olinadi	Плиний Старший., XIX. 50.
16	Pissur daylari (Daylarning bir qismi) [6]	Kaspiy dengizi qirg‘oqlaridan sharqqa qarab	Страбон. География. В 17 книгах. XI. 8.2.
17	Rumnik (Rummiki)[5]	Kaspiy dengizining Sharqiy qirg‘og‘ida, derbiklar yaqinida joylashtiradi	Плиний Старший., XIX. 50.
18	Tur (Tura) [8. – bet 177.]	O‘rta Osiyo	Авесто. Яшт. Ардвисура Анахита

			қасидаси. (5-яшт).15-бўлим, (66).
19	Xroas[5]	Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida, Antakatlar bilan birga tilga olinadi.	Плиний Старший., XIX. 50.
20	Yatiy(Iatiy)[4. -p. -41.]	Sirdaryoning shimoliy qismida	Клавдий Птоломей. География. VI, 12.4.
21	Zarangi[4], [5]	O‘rta Osiyo	Априан. III.25,8. Плиний Старший., XVIII. 48.

Jadvallarda keltirilgan O‘rta Osiyo ko‘chmanchi chorvador qabilalari yashagan hududlar geografiyasi statistikasiga e‘tibor bersak mintaqaning barcha hududlari tilga olinadi va tegishliligiga ko‘ra eng ko‘p tilga olingan joylar quyidagicha:

1. Baqtriyada - Baqtriyaning shimoli, g‘arbi, janubi, Baqtriya va Hindiston oralig‘i, Baqtriya va So‘g‘d chegaralari, Amudaryo (Oks)ning yuqori oqimi.

2. So‘g‘d hududida - Sharqiy So‘g‘diyona, Xo‘jandning shimoli, Nurota tog‘lari shimoli, So‘g‘d to‘g‘lari orti, Baqtriya va So‘g‘d chegaralari.

3. Xorazm, Orol va Kaspiy dengizlari oralig‘i - Orolbo‘yi va Xorazm atrofi, Kaspiy dengizining shimoli, sharqiy qirg‘oqlari va uning ko‘rfazi, Kaspiy dengizining sharqidan Orolning shimoliy qirg‘oqlarigacha, Marg‘iyonaning bo‘sh yotgan cho‘llari, Parfiyaning shimoliy qismi xamda O‘zbo‘y va Bolxon oralig‘i, butun O‘zbo‘y bo‘ylab.

4. Toshkent vohasi va Janubiy Qozog‘iston - Toshkent vohasi, Janubiy Qozog‘iston, Sirdaryo bo‘ylari va So‘g‘d yerlarigacha bo‘lgan joylar.

5. Sharqiy hudud - Farg‘ona, Pomirning tog‘li tumanlari, Farg‘ona va Tyan-Shanning janubi.

6. O‘rta Osiyo daryolari qirg‘oq bo‘yi, cho‘l, tog‘ va tog‘ yonbag‘ri ko‘chmanchilari - Orol dengizi bo‘ylari va g‘arbiy, shimoliy qismi, Sirdaryo va Amudaryoning quyi oqimlari hamda qirg‘oqlari, deltasi va kanallari, Qoraqum va Qizilqum sahrolari, Tanaisning shimol tarafidagi yerlar, Qozoq cho‘llari, Tojikiston va Qirg‘iziston tog‘, tog‘ yonbag‘irlari, daryo vodiylari, adirlari.

Yuqoridagilar eng ko‘p ko‘rsatilgan hududlar sifatida namoyon bo‘ladi va arxeologiya ham buni tasdiqlaydi. Keltirilgan hududlarning ayrimlari o‘troq mintaqalar bo‘lsada, manbalarga ko‘ra O‘rta Osiyoning qadimgi davr ko‘chmanchi qabilalari shu hududlar tarkibiga kiruvchi yerlarda istiqomat qilishlari aytib o‘tilgan. Ko‘chmanchi qabilalar umumiy aholining xo‘jalik turidan farq qiladigan bir qismini tashkil qilgan va chorvachilikka mos yerlarning barchasida yashash imkoni mavjud.

O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalarining nomlarini o‘rganishda o‘xshash nomlar tahlili e‘tibor talab qiladigan mavzu. Qadimgi yozma manbalarda ko‘p marta tilga olingan, afsonalar to‘qilgan yirik qabilalar ittifoqini tashkil qilgan sak, massaget va boshqa qabilalarning qirilib

ketishi yoki mintaqadan butkul nom nishonsiz ko‘chib ketishini bir tasavvur qilib ko‘rish kerak. Temir davri oxirlari va eramizning boshlariga kelib bu nomlarning yozma manbalarda uchramay qo‘yishi kuzatiladi. Bunda biz misol tariqasida sak so‘zining o‘zgargan qismi sifatida **sa**-sagater, sakaravl, **si**-urapsian, oksien, oksiadrank, apasiak, atasiy, yana boshqa **as** yoki **asp** shaklida ariasp, zariasp, arasmi, astak, adrasp, pasian, as, arimasp, **is**-aristey, orisp, va boshqa shunga o‘xshash nomlarni uchramiz. Asos qismlarni qabilalar nomida shu shaklda uchrash dastlabki uyushma nomini qisman saqlab qolgan holda yangilangan ittifoq yoki nom ostida yashashi deb tushunishimiz mumkin. Qayta birlashish hamda unda yetakchilikni qo‘lga olish jarayonida shu vaqtgacha ochiq yoki yopiq tarzda mavjud muxolif guruhlarini sahnaga chiqishiga imkon bergan. Axoli sonining ortishi va migratsiyalar natijasida oldingi asos nom o‘zagida ayrim o‘zgargan odatlar bilan yangi qabilalar vujudga kelgan.

XULOSA. ВЫВОДЫ. CONCLUSIONS. O‘rta Osiyoning qadimgi yozma manbalarda nomlari keltirilgan aholi vakillaridan qabila sifatida keltirilganlari ko‘chmanchi sifatida qaraladi. Gerodotdan boshlab, Strabon, Kursiy Ruf, Arrian kabi mualliflarning asarlarida O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalarining nomi va asosan yashash joylari bir biridan yoki o‘zlaridan boshqa mualliflarning keltirib o‘tgan ma‘lumotlaridan yetarlicha farqlarni ko‘rishimiz mumkin. Buni sabablarini quyidagicha izohlash mumkin: Yunon-rim muarrixlari bergan ma‘lumotlar turli davrlarda oid va qabilalar o‘troq emas ko‘chmanchi ekanligida.

Mintaqada yashagan ko‘chmanchi chorvador qabilalar istiqomat qilgan hududlar chegarasini aniq tasniflash masalasida tarixchilarning bir qator munozaralari mavjud. Etnografik ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirgi o‘zbek, qozoq va mintaqaning boshqa xalqlari orasida kelib chiqishi bir xil bo‘lgan qabila yoki urug‘ nomlari mavjud. Mavjud tadqiqotlarga qaramay bu masalada mintaqalar tarixchilari tomonidan ayrim urug‘ nomlarini siyosiy lashtirish, tarixni milliy lashtirish, buyuk millatchilik va ayirmachilik kayfiyatidagi asossiz chiqishlar to‘xtamayapti. Masalan, mintaqaning hozirdagi siyosiy-ma‘muriy chegaralarini asos qilib hali uni genetik jihatlari to‘liq va asosli tarzda tahlil qilinmasdan, o‘sha millatning etnogenez jarayonida qay darajada rol o‘ynaganligini aniqlamasdan o‘zlashtirish holatlari mavjud. Buni isbotlash uchun turli kinofilmlar, katta-katta ilmiy asarlar tayyorlash davom etib kelmoqda. Olib borilayotgan tadqiqot va ilmiy ishlarda aslida bugungi kundagi chegaralardan xoli, yaxlit mintaqalar sifatida qarashni ko‘chmanchi chorvador qabilalar tarixini o‘rganishda eng maqbul tanlov. Qabilalarni turli sabablarga ko‘ra yashash joyini o‘zgarishi bugungi kunda uni bir millatdan ikkinchi millatning shakllanish asosiga o‘tkazib qo‘yish yoki bu tushunchani dastak qilib olishga imkon bermaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Robert N Spengler III, Michael D. Frachetti and Gayle J. Fritz. Ecotopes and herd foraging, practices in the steppe mountain ecotone of Central Asia during the bronze and iron ages. *Journal of ethnobiology* // 2013. Vol 33, N:1.

2. John R. Gardiner-Garden. Ancient literary conceptions of eastern scythian ethnography from the 7th to the 2nd century b.c. 1986. March. -pp. -280.
3. Helmut Humbach, Klaus Faiss. Herodotus's Scythians and Ptolemy's Central Asia. Semasiological and Onomasiological Studies. Wiesbaden. 2012. – p, 34-43.
4. Арриан. Поход Александра / перевод с древнегреческого М.Е.Сергеевко. Ответственный редактор д.и.н. О.О. Крюгер.-М.: -Л.:, 1962.
5. Плиний Старший. Естественная история. Книга шестая. В.В. Латышев. Известия древних писателей о Скифии и Кавказе. Вестник древней истории, 1949, № 2. Извлечения и переводы из книги VI, сделаны И.П. Цветковым.
6. Страбон. География. В 17 книгах / Пер. Г.А.Стратановского. - М. - Л.: Наука, 1964.
7. Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г.А.Стратановского. Л., Н., 1972.
8. Авесто. Асқар Махаммат таржимаси. Тўртинчи дафтар. Яштлар. (5-яшт) Ардвисура Анахита қасидаси. Тошкент. “Шарқ”, 2001. -бет 177-178.